

**VIRTUAL MUHITDA O'ZARO SAMARALI TA'SIRINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Otamuratov Rustam Uskanovich

O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali,

"Oila psixologiya"si kafedrasi o'qituvchisi

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna

O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali

"Oila psixologiya"si kafedrasi o'qituvchisi

Ibodullayeva Nodira

O'zbekiston milliy universiteti, Jizzax filiali talabasi

E-mail: rustamota1989@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda virtual olam ta'sirining kuchayishi, virtual muhitda insonlarning o'zaro samarali ta'sirining psixologik xususiyatlari borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'z: Virtual ijtimoy ong, internet, tobelik, neyrolingvistik, kiber aloqa, anitisotsial, sensorli kechilmalar, identifikatsiya, anonimlik.

Annotation. The article discusses the increasing influence of the virtual world today, the psychological characteristics of the effective interaction of people in the virtual environment.

Keywords: virtual, cybar communication, social, sensory experiences, identification, anonymity.

Аннотация. В статье рассматривается усиление влияния виртуального мира на сегодняшний день, психологические особенности эффективного взаимодействия людей в виртуальной среде.

Ключевые слова: Виртуальное общественное сознание, Интернет, зависимость, нейролингвистика, киберкоммуникация, асоциальность, сенсорные переживания, идентичность, анонимность.

Mavuning dolzarblii. Biz yashab turgan yangi dunyoda texnologiyalar misli ko'rilmagan darajada rivojlanmoqda va kompyuterlar oddiy, hatto zarur narsalarga aylandi. Internetning afzalliklari haqida hamma biladi, aksariyat odamlar undan nafaqat ma'lumot qidirish, balki kiber olamga haqiqatdan qochish uchun ham foydalananadilar. Kiber borliq - bu inson tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan dunyo[1]. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi. Kiber borliq bizga boshqa dunyoga tashrif buyurish, dam olish va muammolardan tanaffus qilish, shuningdek yangi hissiyotlarni olish imkoniyatini beradi. Yangi texnologiyalar haqida bilib odamlar kiber olamga

shoshilishmoqda, ammo ular kiber haqiqatning pisixologik tasiri xavfli bo'lishi mumkinligini unutishadi. Hamma narsaning ko'pi zarar degandek kiber olamning ham zararli taraflari mavjud.

Kiber olamga tez-tez sho'ng'ish bilan, odam o'z qahramonining roliga juda odathanib qolishi mumkin [2].

- Hayotdagi xatti-harakatlariga salbiy ta'sir qiladi.
- Vaqt boshqaruvini yo'qotadi.
- Antisotsial bo'lishi mumkin.
- Keraksiz bo'lgan narsalardan ko'p foydalanish.
- Haqiqiy hayotda yaqinlardan uzoqlashish.

Internetga qaramlik psixologik muammolarni keltirib chiqaradi: Internetga qaram shaxslarning asosiy muammolari o'zini o'zi qabul qilish sohasidir. Qaram o'smirlar atrofdagilar bilan yaqin muloqot qilishda va o'zlarini namoyon etishida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularda ko'p hollarda o'z "Men"i va tanadagi ehtiyojlarini anglashda ham jiddiy muammolar kuzatiladi. Bundan tashqari o'z-o'ziga baho hamda o'z-o'zini qadrlash mexanizmlariga ham jiddiy putur yetishi mumkin. Hozirgi kunda bolalar va o'smirlarning hovli va ko'chalardagi muloqotlari asosan, chek-chegarasi yo'q bularning barchasi ijtimoiy tarmoqlarga ko'chdi [3]. Mazkur muloqotlar bolalarga shunisi bilan ham qiziqroqki, avvalo, tarmoqda o'zlariga ko'proq «do'st» orttirish imkonи mavjud. Tarmoqda muloqot qilarkan, bolalar o'zlarini omadli bola qilib ko'rsata oladilar. O'zgalar rolida o'zlarini taqdim etib, turli yolg'on dunyolarga berilib ketadilar. Uyatchang va tortinchoq bolalar uchun ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlari bordir, vaqt kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o'z samarasini berishi ham mumkin [4].

Internet — bu deyarli barcha qiziqliklarni qondirish makonidir. Ba'zan tarmoqda ayrim axborotlarni izlab o'tirishning ham hojati bo'lmaydi. Ular har yerda o'zlarini taqdim etilaverishi sababli osongina erishish mumkin. Zamonaviy pedagog va psixologlar hozirga qadar kiber muloqot bola shaxsiy shakllanishiga qanday ta'sir etishi haqida bir xulosaga kelmaganlar[5]. Ayrimlar bu faqat salbiy xususiyatlarnigina shakllantiradi deb bilib, bolalarning insonlararo munisabatlarida o'zlarini tutish, histuyg'ularini namoyon etish va mimikalariga yomon ta'sir etishini ta'kidlasalar, boshqalar kiber muloqot — zamonaviy kommunikatsiyaning juda qulay va yengil usulidir deb biladilar. Bolani Internetda muloqot qilishga o'rganib borishida, ularga tarmoqda umuman, o'z shaxsiy ma'lumotlari, uy telefoni raqami, manzili, shuningdek, ota-onasi va yaqinlarining shaxsiy ma'lumotlarini berish mumkin emasligini tushuntirish zarur. Kiber «do'stlari» orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko'ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta'kidlashlari zarur[6].

Cheklangan sensorli kechinmalar. Internetda uchrashishlardan sensorli taassurotlar – ko’rish, audio, ematsianal holat to’g’risida gapirmasa ham bo’ladi. Ko’proq insonlar yozma nutq yordamida muloqotda bo’ladilar. Lekin hatto audio-video konferensiyalar samarali va boshqarish hamda foydalanishda oddiy bo’lganda ham hech qachon jismoniy aloqalar imkon – ishbilarmonlarcha qo’l oli-shishlarni, do’stona yelkasiga urib qo’yishlarni esdan chiqarishga to’g’ri keladi, yoqimli bag’riga bosishlar bo’lmaydi. Kiber muhitda – umuman olganda, yuzma-yuz uchrashgandagiga qaraganda, ba’zi ajoyib ustunliklari bilan bir qatorda, sensorli his qilish cheklanganligi bilan ayrim kamchiliklarga olib keladi.

Shaxsnинг identifikatsiyasi, ko’pligi va anonimligi. Yuzma-yuz aloqaning va shaxsiy mavjudlikning umuman yo’qligi kiber muhitlik insonlarning o’zlarini tanishlariga g’alati ta’sir ko’rsatdi. Oddiy bosma matn bilan aloqa qilib turib, qator tanlovlarga ega bo’lasiz – o’zingiz haqingizda nima xohlasangiz shuni gapirishingiz, qanday xohlasangiz shunday ko’rsatish yoki umuman notanish bo’lib qolish – ba’zi holatlarda esa ko’rinmas odam bo’lish imkoniga ega bo’lasiz. Shunda chatlarda muhabbat iztiroblarini rivojlanishini kuzatishingiz, konferensiyalarda munozara hamda baxslarda ishtirok etishingiz mumkin bo’ladi. Shu bn birgalikda xushomadgo’ylik o’yinini boshlayotgan tashqaridan qaralganda o’zining ochiqligini to’la anglab yetadi [7]. Yaratilgan instrumental muhitlar va kiber hamjamiyatlar ko’pchiligidagi xayolingizga kelgan xohlagan ismni aytishingiz mumkin. Multimedya-dunyoda bundan tashqari o’zingizga boshqa tashqi ko’rinishni tanlash, kiber kiyim kiyib olish imkonini beradi. Anonimlikka erkinlik holati xos bo’ladi va mana shu burilishda yo’l ikkiga ajraladi. Ba’zan mana shu ustunliklardan odamlar salbiy kayfiyatlarini yo’qotish va bema’ni ehtiyojlarini qondirishda foydalanadilar. Ikkinchisi yo’li esa – bu ochiq ko’ngil bo’lish va ijtimoiy qoidalar ularni muhokama qilishni ma’qullamasa yoki keng jamoatchilik oldida uni hatto tilga olishni taqiqlasa ba’zi juda shaxsiy jihatlarini yashirmslik imkonidir.

Mavqelarining tenglashishi. Umumiy holatda Internetga berilib ketgan har bir shaxs o’zini boshqalar bilan teng ifoda etish imkoniyatiga ega bo’ladi. Har bir shaxs – mavqeい, salomatligi, millati, jinsi va boshqa holatlardan qat’iy nazar – teng darajada barcha uchun barobar o’yin maydonida doimiy bir xil qoidalar bo’yicha o’yinni boshlaydi. «Tashqi jahon» mavqeい baribir «kiber – hayotga» bir muncha ta’sir ko’rsatishi holatini vaqtinchalik esdan chiqaramiz. Sizning boshqalarga ta’sir ko’rsatishingiz me’yorini belgilovchi tomoni – bu kommunikatorlik qobiliyatingiz (birinchi navbatda, yozma nutq mahoratingiz va «yo’zma» ta’sir ko’rsatish hamda ishontirish imkoniyatlaringiz), qat’iyatligingiz, fikrlaringiz mohiyati va mazmuni hamda o’ziga xos know-how texnologik ko’nikmalarining hisoblanadi [8].

Masofa chegaralarining yo’qotilishi.

Insonlar. Oddiy hayotda ular o‘zlariga o‘xshash fikrlaydigan yoki hech bo’lmasa suhabatdoshi qarashlarini ma’qullaydigan insonni topishlari balki juda qiyin bo’ldi [9]. Ammo kiber olamda barchasi buning aksi bo’ladi.hamma o’ziga o‘xshagan insonlarni topishi mumkin.

Aloqalarning cheklanmaganligi. Juda yengillik bilan, o‘rnidan turmasdan va barmoqlarini qiynalmasdan harakatlantirib inson turli soha insonlari bilan va yuzlab, hatto minglab insonlar bilan muloqotda bo’lishi mumkin. Internet alohida insonlar va guruhlar o’rtasida izlash, ajratib olish va aloqalar vositasi sifatida kuchga ega va yanada samarali bo’lib boradi. Lekin aloqa qilish uchun biz barchani emas, balki ba’zi insonlarni tanlaymiz? Nima uchun aynan shularni – boshqalarni emas? Internet alohida insonlar va guruhlar o’rtasida izlash, ajratib olish va aloqalar vositasi sifatida kuchga ega va yanada samarali bo’lib boradi. Lekin aloqa qilish uchun biz barchani emas, balki ba’zi insonlarni tanlaymiz? Nima uchun aynan shularni – boshqalarni emas? Do’stonalik, muhabbat va adovat munosabatlarida o’zi anglab yetmagan motivatsiyasi bilan birgalikda anglab yetgan afzallikkleri va to’g’ri tanlovlari asosida yo’l tutadi. Vaziyatning bunday rivojlanishi bizning yashirin emosiyalarimiz hamda ehtiyojlarimizga mos keladigan insonlarning kundalik bekorchi tashvishlanishlariga olib keladi. Insonlar bir birini tanimaganligi uchun o‘zlarini bemalol namoyish eta oladilar. Shaxsiy qiziqislarini royi-rost aytal olishlari ko’p uchrab turadi

Xulosa. Hozirgi kunda ko‘pchilik yuzma - yuz aloqadan ko‘ra kiber aloqani afzal ko‘radi.internetdan foydalanganimizda bizga kerakli infarmatsiyalarni juda tez chiqaradi albatta, ammo u bilan birgalikda keraksizlari ham qo‘silib chiqish xolatlari ko‘p uchraydi. Sotsial fobiyasi bor shaxslarda virtual muloqot foyda beradi. Lekin undagi fobiya batamom yo‘qolib ketmaydi. Shunday ekan gadjetlardan yetarli darajada foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Otamuratov R.U. Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi., Ташкентский государственный стоматологический институт., “Med Union” медицинский научно-практический журнал. Volume 2, Issue 1, 2023
2. Otamuratov R., Otamuratova S. O‘smirlarda kasbiy o‘zligini anglashiga xavotirlanishning ta’siri., O‘zMU XABARLARI., MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ İLMİY JURNALI., 2023 1/1 Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi, 140-144 b., Toshkent 2023.
3. Uskanovich, O. R. (2022). PSIXOLOGIYADA XAVOTIRLANISHNING İLMİY-PSIXOLOGİK XUSUSİYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.
4. Otamuratov R.U. O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSİYATLARI //

CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlardagi-kasbiy-o-zligini-anglashidagi-xavotirlanishning-psixologik-xususiyatlari> (дата обращения: 30.01.2023).

5. Otamuratov R.U., Ochilova M. EMOTSIONAL INTELEKT TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIGI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/emotsional-intelekt-tushunchasining-psixologik-o-ziga-xosligi> (дата обращения: 30.01.2023).

6. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). INTERNETNING SHAXSGA TA'SIRI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

7. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

8. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING HISSIY OMILLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

9. Yuldashev, SE, Otamuratov, RU, & Safarova, EM Voyaga yetmaganlar o'zlarining shaxsiy kasalliklari psixologiyasi va diagnostikasi,“. *Fan va ta'lim*.